

Xudaykulov Shuxrat Shavkatovichning Boshqaruv raisi lavozimidagi vakolatlari yana uch yilga uzaytirildi

2026 6 Aprel

“Uzbekistan Airways” AJ Kuzatuv kengashi va aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qarori bilan Xudaykulov Shuxrat Shavkatovichning Boshqaruv raisi lavozimidagi vakolatlari yana uch yilga uzaytirildi.

Shuxrat Shavkatovich milliy aviakompaniyani 2023-yildan buyon boshqarib kelmoqda. Erishilgan natijalar va amalga oshirilayotgan rivojlanish strategiyasini hisobga olgan holda, aksiyadorlar amaldagi rahbariyatga ishonch bildirib, uning faoliyatini davom ettirishni qo‘llab-quvvatladilar.

Qabul qilingan qaror aviakompaniyani yanada rivojlantirish, yo‘nalishlar tarmog‘ini kengaytirish va xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan. Uning rahbarligida flotni modernizatsiya qilish, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va operatsion samaradorlikni oshirish bo‘yicha loyihalar izchil amalga oshirilmoqda.